



## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAXOLASH DASTURLARI**

**To'xtayev Isomiddin Ismatullo o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha

va Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlig'ining

ta'lim yo'nalishi III-bosqich talabasi

[toxtayevismiddin74@gmail.com](mailto:toxtayevismiddin74@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Xaydarova M. X**

**Annatotsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati, ularning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashdagi roli hamda ta'lim sifatini oshirishga qo'shadigan hissasi yoritiladi. Asosiy e'tibor PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga qaratilib, ularning baholash mezonlari va natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu dasturlar asosida olingan natijalardan pedagogik jarayonda qanday foydalanish mumkinligi va milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda ularning tutgan o'rni muhokama qilinadi. Maqola ta'lim mutaxassislari, o'qituvchilar va ta'lim sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislarga mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** PISA, PIRLS, TIMSS, bilim, ko'nikma, pedagog, xalqaro, dastur, mutaxassis, milliy ta'lim.

**Abstract:** This article discusses the importance of international assessment programs in primary schools, their role in determining students' knowledge and skills, and their contribution to improving the quality of education. The main attention is paid to international assessment programs such as PISA, PIRLS, TIMSS, and their assessment criteria and results are analyzed. It also discusses how the results obtained on the basis of these programs can be used in the pedagogical process and their role in the development of the national education system. The article is intended for education specialists, teachers, and specialists conducting research in the field of education.

**Keywords:** PISA, PIRLS, TIMSS, knowledge, skills, teacher, international, program, specialist, national education.

**Аннотация:** В статье обсуждается важность международных программ оценки в начальных школах, их роль в определении знаний и навыков учащихся, а также их вклад в повышение качества образования. Основное внимание уделяется международным программам оценки, таким как PISA, PIRLS и TIMSS, а также анализу их критериев оценки и результатов. Также будет обсуждаться, как результаты, полученные в ходе реализации этих программ, могут быть





использованы в педагогическом процессе и какова их роль в развитии национальной системы образования. Статья предназначена для специалистов в области образования, преподавателей и исследователей в области образования.

**Ключевые слова:** PISA, PIRLS, TIMSS, знания, навыки, учитель, международный, программа, специалист, национальное образование.

**Kirish:** Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (**inglizcha:** *Programme for International Student Assessment*) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning **savodxonligini** (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo'ladi. 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan.

Test **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti** (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo'lgan davlatlar ishtirok etadi.

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda — **Xitoy**, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — **Finlandiya**, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan.

### **PISA test tarkibi**

PISA testlari 5 ta yo'nalish bo'yicha *o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik* o'tkaziladi. Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

1. Bir javobli testlar;
2. Bir nechta javobli testlar;





3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;

4. Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.

### **PISA asosiy yo'nalishlar**

**O'qish savodxonligi:** *Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.*

Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

**Matematik savodxonlik:** *Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta'minlash bu bo'limning asosiy maqsadidir.*

Bu bo'limdagi savodxonlik terminidan bu bo'lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash emasligini ko'rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e'tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intuiativ qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo'llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko'nikmalar zarur bo'lishi mumkin.

Bu yo'nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va hokazo) duch kelinishi mumkin bo'lgan matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi.

**Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi:** *Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir.*





Bu savodxonlik asosi bizning maktablarimizda fizika (astronomiya elementlari bilan birga), [biologiya](#), [kimyo](#) va [geografiya](#) fanlari o'qitilish jarayonida berilishi ko'zda tutilgan.

### **2000-yil**

2000-yilda 32 davlatdan 265 000 o'quvchilar test sinovidan o'tgan. Ushbu yilda asosiy mavzu — o'qish va o'qilgan narsalarni tushunish qobiliyati tanlangan bo'lib, test savollarining uchdan ikki qismi aynan shu mavzuga bag'ishlangan.

### **2003-yil**

PISA-2003 da 43 mamlakatdan 275 000 dan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. O'qish bo'yicha Finlandiya 543 ball bilan birinchi o'rinni egalladi. [Rossiya](#) — 442 ball, AQSh — 495 ball, [Serbiya](#) — 412 ball olgan.

Matematika yo'nalishida [Gonkong](#) 550 ball bilan birinchi o'rinda, [AQSh](#) 483 ball, Italiya 466 ball, Rossiya 468 ball to'plagan.<sup>[3]</sup>

Tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha [Finlandiya](#) yetakchilik qilgan (549 ball).

### **2006-yil**

2006-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha 57 davlat orasida Janubiy Koreya 556 ball bilan birinchi o'rinni egallagan.

Matematika yo'nalishida [Taybey](#) 549 ball bilan yetakchilik qilgan. AQSH 468 ball, Isroil 442 ball to'plagan.

Tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha Finlandiya 563 ball bilan birinchi o'rinda, Italiya 475 ball, AQSh 489 ball to'plagan.

### **2009-yil**

2009 — yilda tadqiqotda 74 davlat ishtirok etgan. O'qish savodxonligi bo'yicha Xitoyning [Shanxay](#) shahri 556 ball bilan yetakchilik qilgan. [Koreya](#) 539 ball bilan ikkinchi va Finlandiya 536 ball bilan uchunchi o'rinni egallagan.

Matematika yo'nalishida ham Xitoyning [Shanxay](#) shahri 600 ball bilan yetakchi, MDH davlatlaridan Rossiya 468 ball, Qozog'iston 405 ball, Qirg'iziston 331 ball to'plagan.

### **2012-yil**

2012-yilda PISA da 65 ta davlat, jumladan, OECDga a'zo 34 ta davlati ishtirok etdi.

Ishtirokchilarga an'anaviy testlar bilan bir qatorda tadqiqot tarixida birinchi marta yangi turdagi masala, ya'ni — interaktiv masalalar (interactive problems) taklif qilindi.

### **2015-yil**

2015-yilda tadqiqotda 70 ta davlat ishtirok etdi<sup>[6]</sup> Shu yili an'anaviy testlar bilan bir qatorda, moliyaviy savodxonlik bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.





Singapur davlati o'qish savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi PISA tadqiqotining barcha yo'nalishlari bo'yicha birinchilikni egallagan. MDH davlatlaridan o'qish savodxonligi bo'yicha Qozog'iston 427 ball (53 — o'rin), matematik savodxonlik bo'yicha Rossiya 494 ball (23-o'rin) va tabiiy fanlar bo'yicha Moldova 428 ball (50-o'rin) to'plagan

**PIRLS** (inglizcha: *Progress in International Reading Literacy Study*) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda 94nform oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

Tadqiqot davriy ravishda – har besh yilda bir marta o'tkaziladi va hozirgacha besh marta: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o'tkazilgan.

#### PIRLS 2016

**PIRLS** o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib inform;
- yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib Informa;
- ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib 94nforma;
- o'qishni va o'qitishni o'rganish.

PIRLS loyihasi Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi ([IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement](#)) shafeligida yaratilgan. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kolleji mas'ul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburgdagi ([Germaniya](#)) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

#### Tadqiqot uslubi

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan





foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir<sup>[1]</sup>.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o'qishini ikki turi baholanadi:

1. O'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish;
2. Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va 95nformation matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- *aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;*
- *xulosalarni shakllantirish;*
- *ma'lumotlarni talqin va sintez qilish;*
- *mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.*

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.





Quyida daraja (400 ball) – O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi.

**Xulosa:** Boshlang‘ich sinflarda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. PISA, PIRLS va TIMSS kabi baholash tizimlari nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini ham baholashga yordam beradi. Ushbu dasturlar natijalari ta‘lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniq ko‘rsatib, uni isloh qilish va rivojlantirish uchun muhim ma‘lumotlarni taqdim etadi. Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish ta‘lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvini ta‘minlaydi, o‘qituvchilar malakasini oshirishga xizmat qiladi hamda darslik va o‘quv dasturlarini yangilash uchun ilmiy asos yaratadi. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini chuqur tahlil qilish orqali pedagogik jarayonni takomillashtirish, ilg‘or metodlarni joriy etish va ta‘lim sifatini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, bu dasturlar ta‘limni faqatgina yod olishga emas, balki amaliy qo‘llashga asoslangan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltiradi. Natijada, o‘quvchilar real hayotda duch keladigan vaziyatlarga moslashishga, mustaqil fikrlash va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga o‘rganadilar. Shunday qilib, xalqaro baholash dasturlarida faol ishtirok etish ta‘lim tizimining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning global raqobatbardoshligini ta‘minlashga hamda milliy ta‘lim strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda davlat, ta‘lim muassasalari va pedagoglarning hamkorlikda ishlashi ta‘limning sifatini yuksaltirishning muhim shartidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. PIRLS xalqaro baholash dasturi
2. PIRLS 2001 International Report
3. PIRLS 2006 International Report
4. PIRLS 2011 International Report
5. PIRLS 2016 o‘qish yutuqlari tendentsiyalari
6. „PIRLS 2021 natijalari“.
7. oecd.org.pdf
8. oecd.org.pdf
9. oecd.org.pdf
10. oecd.org.pdf
11. Vostok delo umnoe Mejdunarodniy reyting shkolnogo obrazovaniya vozglavili aziati
12. pisa-2015-results-in-focus.pdf
13. pisa-worldwide-ranking-average-score-of-math-science-reading/





14. Rezultati PISA 2018-ru

15. O‘zbekiston ilk bor 2022-yilda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etadi.

